

**ZARAFSHON HAVZASI O'ZBEK-TURKMAN URUG'LARI
TAMG'ALARI XUSUSIDA.**

Umarov Anvar Shuxratovich

Doktorant (PhD)

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail: komarovanvar88@gmail.com

***Annotaqiya:** Ushbu maqolada Zarafshon vohasi o'zbek-turkman urug'lari chorvalariga qo'yilgan tamg'alar, ularning shakllari, nomlari, tamg'alar qo'shib aytiladigan urug'lar, tamg'a bilan bog'liq qishloqlar tarixi va tamg'a so'zining ma'nosi xususida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar.** “Devonu lug'otit turk”, “olti ota qozoyoqli”, urug'-qabila, qo'shtamg'ali, oytamg'ali, oqtamg'ali, sirg'a taqish, tamg'a, belgi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются знаки, наносимые на скот узбекско-туркменских родов Заравшанского оазиса, их формы, названия, роды, которые называются путем сложения знаков, история сел, связанных с знаком, и значение.*

***Ключевые слова:** «Девону луг'отит тюрк», «Алты Ота Казойоглы», род-племя, коштамгали, ойтамгали, актамгали, ношение сережек, клеймо, символ.*

***Abstract.** This article discusses the signs applied to the livestock of the Uzbek-Turkmen clans of the Zarafshan oasis, their forms, names, genera, which are called by adding the signs, the history of the villages associated with the sign, and the meaning.*

***Keywords:** “Devon lugotit Turk”, “Alty Ota Kazoyogli”, clan-tribe, Koshtamgali, Oytamgali, Aktamgali, wearing earrings, brand, symbol.*

O'zbek xalqi tarixini, madaniyatini keng va xolisona o'rganish kishilarimizda, chunonchi, yoshlarimizda o'z millati, Vataniga bo'lgan ixlosini yanada oshiradi, ularda turli tashqi ta'sirlar, g'ayrimilliy qarashlardan xoli bo'lish qobiliyatini shakllantiradi. Zero, o'zbek xalqi eng qadimiy elat-millatlardan biri

bo'lib, ma'naviy madaniyatlari ildizining teranligi sababli asrlar davomida tashqi tajovuzlarga dosh beribgina qolmay, dunyoning juda ko'p xalqlariga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, hozir yer yuzida 3-4 ming etnos bo'lib, tili jihatidan bir-biridan ajralib turadigan etnik birliklarning soni esa uch mingdan ziyod.

Ma'lumki, xalqimizda, xususan o'zbek adabiyotida o'zbek xalqi (millati) 92 qavmli o'zbek, ya'ni xalqimiz 92 urug'-qabiladan tashkil topgan, deb talqin qilinadi. Jumladan, XVII asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Turdi Farog'iy ushbu urug'lar aslida bir-biriga qarindosh ekanligini uqtirib, ularni inoqlikka chorlaydi:

Tor ko'ngulluk beklar, man-man damang, kenglik qiling,
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling.
Birni Qipchoq-u Xitoy-u birni Yuz, Nayman damang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub bir jon oyinlik qiling.
Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.
Kim qo'yubdur, uhdayi o'z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to'rt da'visin etmakni, ko'tahlik qiling.
Mardlar maydon chekib, rangin ko'torib zaxmlar,
Sizga yo'q ul javhare yuzga upo-englik qiling¹.

Lekin etnik birlik (urug', qabila, elat-xalq, millat)larga bag'ishlangan maxsus lingvistik va tarixiy tadqiqotlarda o'zbek urug'larining soni bundan ham ko'pligi ta'kidlanadi. Chunonchi, prof. G.A. Hidoyatovning ta'kidlashicha, XVII asr boshida o'zbek qabila va urug'lari 92 taga yetgan edi. Qabilalar bo'linib, ko'payib bordi, ulardan yangilari ajralib chiqdi va ular ham, o'z navbatida, bo'linib ketdi. Natijada 200 yil mobaynida o'zbek qabilalari uch barobar ko'paydi. Ularning soni

¹ Косимов.Б. Жумаев.Н. Олим.С. Ўзбек адабиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1997, 203-бет
www.tadqiqotlar.uz

esa bundan ham oshib ketdi².

Qadimgilar o'z shajara, urug', sulola, ajdod-avlodlarini yaxshi bilishgan. Turkiy xalqlar esa uch katta bo'lakka: qorluq-chigil, qipchoq va o'g'uz singari katta urug'larga bo'linadi. Dunyodagi barcha turkiy xalqlar mana shu uch bosh urug'dan tarqab, turli urug' va shajaralarga bo'linib ketdilar³.

O'zbekistonni tashkil etib turgan viloyat, tuman, shaxar, ovullar singari qishloqlarning xam o'ziga yarasha o'rni va tarixi bor. O'zbekiston haritasida hozirgacha shahar va qishloqlarning nomlari shaklida uchraydigan etnooykonimlar uchraydi: Shundan kelib chiqqan xolda Qo'shtamg'ali, Oytamg'ali, Oqtamg'ali va Jilontamg'ali nomi bilan nomlanadigan qishloqlar tarixini o'rganish dolzarbdir. Ushbu nomdagi qishloqlar Samarqand viloyatining Bulung'ur, Samarqand va Qo'shrobd tumanida (Qo'shtamg'ali), Ishtixon, Oqdaryo, Payariq, Pasdarg'om, Qo'shrobd va Narpay tumanida (Oytamg'ali), Urgut tumanida (Oqtamg'ali) nomli qishloqlar va shu nomdagi etnik guruxlar uchraydi⁴.

Ko'pgina etnonimlar urug' - aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'alar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida emas, chorvador aholi uchun muhim belgi vazifasini o'tagan. Chorvachilik bilan shug'ullangan har bir etnik guruhning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'alar shakli, tuzilishi, ijtimoiy mazmuni va mohiyati bilan bir-biridan farqlangan.

Tamg'a ramziy nishon, belgi vazifasini o'tagan. Ko'pincha chorvachilik bilan shug'ullanganligi sababli ular qo'ylari, echkilari, otlari, tuyalarini boshqalarnikidan farq qilish uchun turli shaklda tamg'alab qo'yganlar⁵.

Masalan, Jizzax viloyati toponomiyasini o'rgangan A.Zokirovning takidlashicha, viloyat hududidagi etnotoponimlar tarkibida uchraydigan taroqli, cho'mchiqli, qirg'ili, bolg'ali kabi urug'larning tamg'alari shakllari uy-ro'zg'or

² Хидоятлов Г.А. Менинг жонажон тарихим. -Ўқитувчи, 1992, 206-бет; Бўриев О. Туб илдишлар // «Маърифат» газетаси, 1999 йил 23 июнь.

³ Махмуд Саттор. Уруғ, шажара, сулола // «Мулоқот» журнали, 1994, 1-2-сонлар, 59-60 бет.

⁴ Элмуродов Н. Зарафшон воҳаси ўзбек халқи этник гуруҳлари. Самарқанд: 2008 йил, 30-32 бетлар.

⁵ [Накимов Қ.Топонимика-Ташкент. 2016. - 148-149 б.](http://www.tadqiqotlar.uz)

anjomlariga o'xshash bo'lgan⁶.

Tarixiy statistik ma'lumotlarga qaraganda, Oqtog' va Qoratog' oralig'idagi qishloqlarda XX asrning birinchi choragida (1925 yilgacha) Nurota turkmanlaridan 30-35 ming kishi yashagan⁷. O'zbek-turkmanlar XX asrning o'rtalarigacha qishloqlarda zich yashab, 2 ta yirik urug'-jamo'a uyushmasi "olti ota qozoyoqli" va "besh ota mang'ishlov"ga bo'lingan. Olti ota qozoyoqlilar: oytamg'ali, qo'shtamg'ali, qonjig'ali, bo'g'ajili, qozoyoqlilarga bo'lingan. Ularning har biri yana 6 tadan kichik urug'-jamoalariga bo'linib "24 ota turkmanlilar" deb ataladi.

Ikkinchi etnik guruhga kirgan urug'-jamoadagilar "besh ota mang'ishlov"lar "chilikli", "qunish", "anna", "sirtsuluv", "qizil", "bog'ojat" qavmlariga bo'lingan. Ular aksari Nurota tog'lari atrofidagi Jo'sh, Chuya, Qo'shrabot, Qo'rg'on, Pchot, Ajrim, Pangot, Qovunchi, Zarband, Oqtepa, Maydonsoy va yana ko'plab qishloqlarda yashaydilar⁸.

O'zbek-turkmanlarini Garasha qishlog'iga kelib joylashishi borasida ikki xil fikr mavjud: birinchisi – o'zbek-turkmanlar tabiiy sharoiti qulay keng yaylovlar, suv manbalari ilinjida uzoq muddat mobaynida, bosqichma-bosqich ko'chib kelib joylashganlar. Ikkinchisi – qishloqdagi xo'jalar tashqi dushmanlar–yovdan himoya qilish uchun o'zbek-turkmanlarini Oqtepa, Qo'shrabotdan maxsus ko'chirib keltirganlar. Dastlab qishloq hududiga qo'shtamg'ali va oytamg'ali urug' vakillari kelib o'rnashgan. Ular ma'lum vaqt yashaganlaridan so'ng Qorabdall qishlog'iga ko'chib o'tadilar. Ma'lumotlarga qaraganda, o'zbek-turkmanlarini Garashadan Qorabdallga ko'chib o'tishlariga eshonlar va o'zbek-turkmanlar o'rtasidagi kelishmovchilik sabab bo'lgan⁹.

Og'uz-turklarning bir qabilasi-O'g'uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir; ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordir, urug'larni shu tamg'alarga qarab ayiradilar¹⁰.

⁶ Закиров А.А. Топонимия Джизакской области. //Автореф. дис. канд. филол. н ау к.-М.: 1992.-23 с.

⁷ Мошкова В.Г. Некоторые общие сведения о родопленном составе узбеков, каракалпаков и туркмен // Труды института археологии и этнографии. М. 1950. Вып.2. с. 155-159.

⁸ Dala etnografik ma'lumotlari. Samarqand viloyati Qo'shrabod tumani. 2023 y.

⁹ Салимов Т.Ў. Нурота ва нуроталиклар. Монография. –Т.: Университет, 2019.35-бет.

¹⁰ Абдурахмонов Ф., С. Муталлибовлар. Девони луғотут турк. Индекс-луғат. Тошкент. 1967. 246-бет; Махмуд Кошғарий. Девони луғотут турк I том. Нашрга таёрловчи. Салих Муталлибов. Тошкент 1960 й. 89-400 бетлар.

Tamg'a — 1) turkmo'g'ul chorvador qavmlarda xususiy mulkning keng tarqalgan belgisi. Daraxtlarga, qurol-yarog'larga, teri (hayvon terisi) va boshqalarga qo'yilgan. Macalan, chorvachilikda qoramol, otlarga va parrandalarga bosiladigan maxsus (belginishon). Xo'jaliklarda naslchilik ishlarida, jonli mulk tariqasida hisobga olishda Tamg'a qo'yiladi. Uning bir necha usullari mavjud: molning qulog'iga en solish, qirqish, quymichiga belgini kizdirib bosish, qulog'iga seriyali raqamlar bitilgan sirg'a taqish; parrandalar oyog'iga halqa taqish va boshqalarni keltirish mumkin¹¹.

Shu o'rinda tamg'a so'ziga tarif berish joyizdir. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otut turk": asarida keltirilishicha bir o'rinda "Tamg'a" I: 1. dengiz, ko'l, va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmog'i. 2. Daryoda qayiq to'xtaydigan joy. "Tamg'a" II: tamg'a, muhr. Tamg'aliq-kichgina obdasta, bir kishiga maxsus dasturxon. Asli tamg'alig', yani muxrli demakdir. Odatda podsho o'ziga xos dasturxon va ko'zachani muxrlab qo'yadi, unda bir kishiga loyiq sharob va ovqat bo'ladi. So'ngra xar bir kichik ko'zacha va dasturxonni tamg'alig' deb ataladigan bo'ldi. Buning ma'nosi podshodan boshqa odam undan ovqat yemasligi uchun tamg'a urilgan dasturxon demakdir¹².

Qo'shrobd tumani Orlot qishlog'i Omasuvon urug'idan 1936 yilda tug'ilgan Boymirza bobo va 1946 yilda tug'ilgan Hakim boboning takidlashicha Oltiotag'ozoyoqli urug'ining Olmasuvon tarmog'idanmiz, bu urug'lar oqchopda, pangatda va orrlot qishloqlariga tarqalgan. Yoshligimizdan eshitib kelganmiz, masalan bizlar o'zbek-turkmanlarmiz, va boshqa urug'larda xam qo'y-echki, qora mollar va tuyalariga tamg'a tushirilgan. Biz yoshligimizda otalarimiz, keyinchalik o'zimiz xam chorvalarimizga tamg'a bosar edik. Ushbu tamg'a orqli chorvani ajratib olar edik. Masalan tamg'alarni turi ko'p edi, lekin eng ko'p tarqalgani oy (©) shaklidagi oytamg'a xisoblangan. Uni temirdan shu shaklda yasab keyin olovda qizdirib bosar edi. Ikkinchisi bir tamg'a turkmanlarning maxsus tamg'asi bo'lib,

¹¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tamga-uz/>

¹² Махмуд Кошғарий. Девони луғотут турк. I-том. Нашрга таёрловчи. Салих Муталлибов. Тошкент 1960 й. 479 бет.

(~) manashu belgidagi jilontamg'a deb atalgan. Aytish kerarki bugungi kunda shu urug' ilon (jilon) tamg'ali deb nomlanadi. Balki ilon urug' totemi bo'lishi mumkin. Uchinchi tamg'a (0) shukldagi belgi bo'lgan, buni ko'z tamg'a deb atashgan. (//) bu shakldagi tamg'alar ikki urug' yoki qabila ittifoqining maxsus belgisi xisoblaning qo'shtamg'a deb atashgan. Bu (qo'sh qovurg'a) belgisini bildiradi. Qishloqning umumiy tamg'alari bir xil bo'lgan. Keyingi vaqtlarda xar kim o'ziga moslab biror belgi qo'yib, o'zini chorvasiga egalik qilmoqda. Bizning ota-bobolarimiz alog'ida (g'oz panjasi) belgisi bilan mashxur bo'lgan. Shu sababli g'ozoyoqlilar degan nom qolgan¹³. O'zbek urug'lari nomlari (etnonimlar)ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem) bo'lib. kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan. jifondi (ilonli), jilontamg'ali (ilontamg'ali), qulon, oqbura, qorabura, (bura, buvra, bug'ra - bichilmagan erkak tuya), qarg'a, shag'al (shaqal-chiyabo'ri), echki. ho'kiz etnonimlari shular jamlasidandir. Hayvon nomlari bilan atalgan etnonimlar ba'zan shu urug' ajdodining laqabi ham bo'lishi mumkin. Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Ya'ni har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Masalan, mollarini. otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan¹⁴.

Respublikaning turli tumanlarida ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlikka o'tishida farq bo'lgan. Masalan. Zarafshon vodiysida bir xil urug' yoki to'p shox nomlari bilan ataladigan mayda qishloqlar juda ko'p. Buning sababi shuki. Xiva xonligiga qarshi o'laroq. Buxoro xonligida ko'chmanchilar butun urug'i bilan emas. balki kichik-kichik bo'laklarga bo'linib o'troqlikka o'tishgan. Buxoro xonligida beklklarga nom bergan yirik shaharlar orasida urug' nomi bilan atalgan bironta ham shahar yo'q, holbuki Xiva xonligida bunday shahar uchta-Mang'it, Qipchoq, Qo'ng'iro't, V. V. Bartold bu shaharlarning paydo bo'lishiga Xiva xonligida urug'chilikning kuchli bo'lganligini sabab qilib ko'rsatadi va ular jumlasiga Nukus

¹³ Dala etnografik ma'lumotlari. Qo'shrobd tumani Orlot qishlog'i. 2023 yil.

¹⁴ Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. «Navro'z» nashriyoti. -Toshkent, 2017.64-bet.

shahrini ham qo'shadi¹⁵.

Samarqand viloyati Qo'shrobd tumanida (Qo'shtamg'ali) nomli qishloq bo'lib, Ushbu qishloq fuqarosi 1949-yilda tug'ilgan Boboohun bobo – xalqda bu haqida 2 xil qarash borligini takidlaydi. 1-qarashga ko'ra badanida tamg'asi bor bir qul bo'lgan va shu nomdan kelib chiqqan. 2-qarashga ko'ra qo'shsha-qo'shsha uylar tomlari tutashgan bo'lgan, bir biri bilan uyum bo'lib yashagan. Xatto otabobolarning aytishicha bolaliklarida o'sha tomlar ustida yugurib o'ynab yurishginligini takidlaydi.

Qishloq oqsoqollaridan Karimov Mixliboy bobo ma'lumotlariga ko'ra birinchisiga, ya'ni axoli chorva bilan shug'ullanib mollari adashib ketmasligi uchun podalarning barchasiga «ko'shaloq tamg'a» bosganligini va shuning uchun qo'shtamg'a deb atalgan, degan fikrni ilgari suradi. Ikkinchi ma'lumotga ko'ra esa ikkita kichik qishloqning birlashishi oqibatida shu nom kelib chiklan degan fikr ilgari suriladi. Chunki axoli chorva bilan shug'ullangaj va o'z chorvasiga “qo'shaloq tamg'a” bosishgan. Bu fikrni qo'shni qishloqning nomi ham to'la tasdiqlaydi, chunki uning nomi xam tamg'a bilan bog'liq bo'lib, “Ilontamg'ali” deb yuritiladi. Ular chorvasiga ilon shaklidagi tamg'a bosgan degan fikrni ilgari suradi¹⁶.

Jilontamg'ali, yoki ilontamg'ali aslida urug' nomi xisoblanib, XX-asr boshlarida Nurota tog'ining janubiy yon bag'irlarida yashovchi o'zbek-turkmanlar, Zarafshon vodiysidagi naymanlar, Surxondaryo viloyatidagi yuz, qo'ng'iroq qabilalari tarkibida uchraydi. Jilontamg'ali nomi toponim tarzida xam uchraydi¹⁷.

Turkman urug'lari o'z chorva mollarini boshqa birovnikidan farqlashni osonlashtirish uchun hayvonlarga umumiy va oilaviy xarakterga ega bo'lgan turli xil belgilar qo'yilgan. Shunday qilib, maxsus qoliplar yordamida tegishli tamg'a belgisi (tag'ma) tuyalarda qizdirilgan temir bosilgan. Otlar va qoramollar odatda tamg'alanmagan. Chorvachilikning asosiy qismini tashkil etuvchi qo'y va echkilarga kelsak, terisini kuydirib tamg'a qo'ygan, yomodlar esa bu bilan

¹⁵ Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. «Navro'z» nashriyoti. -Toshkent, 2017.66-bet.

¹⁶ Samarqand viloyati Qo'shrobd tumanida Qo'shtamg'ali qishlog'i. 2023 yil.

¹⁷ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-j/jilontamgali-uz/>

shug'ullanmagan¹⁸. Aytish kerakki, tamg'a ba'zi hollarda nafaqat o'ziga xos, balki himoya belgisi rolini ham o'ynagan¹⁹.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki urug'lar o'z chorva mollarini boshqa bironikidan farqlashni osonlashtirish uchun umumiy va oilaviy xarakterga ega bo'lgan turli xil belgilar qo'yilgan. Chorva ayrim hollarda ishlab chiqarish maxsulotlariga bosilgan yoki qo'yilgan tamg'a belgisi, bu ushbu maxsulotning egasini anglatibgina qolmay, balki shu urug'ning ramziga aylanganligini ko'rish mumkin. Urug'larning bayroqlari va chorvalaridagi tamg'alri bilan boshqa urug'lardan ajralib turishganligi hamda urug'ning ulug'ligini xam belgilagan. Vaqt o'tgan sari ushbu tamg'alar yuqorida zikir etilgani kabi urug' nomiga ham aylanishiga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hakimov Q. Toponimika-Toshkent. 2016.
2. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. «Navro'z» nashriyoti. -Toshkent, 2017.
3. Бўриев О. Туб илдизлар // «Маърифат» газетаси, 1999 йил 23 июнь.
4. Демидов С.М. Магтымы (Историко этнографический этюд) // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. М., 1975.
5. Закиров А.А. Топонимия Джизакской области. //Автореф. дис. канд. филол. наук.-М .: 1992.
6. Қосимов.Б, Жумаев.Н, Олим.С. Ўзбек адабиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
7. Махмуд Кошғарий. Девони луғотут турк I том. Нашрга таёрловчи. Салих Муталлибов. Тошкент 1960.
8. Махмуд Саттор. Уруғ, шажара, сулола // «Мулоқот» журнали, 1994, 1-2-сонлар.
9. Мошкова В.Г. Некоторые общие сведения о родопленном составы узбеков, каракалпаков и туркмен // Труды института археологии и этнографии. М. 1950. Вып.2.

¹⁸ Оразов А. Скотоводство у туркмен в XIX – начале XX в. Ашгабат, 1995. С. 262.

¹⁹ Демидов С.М. Магтымы (Историко этнографический этюд) // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. М., 1975. С.32.

10. Оразов А. Скотоводство у туркмен в XIX – начале XX в. Ашгабат, 1995.
11. Салимов Т.Ў. Нурота ва нуроталиклар. Монография. –Т.: Университет, 2019. Абдурахмонов Ғ., Муталлибов С. Девони луғотут турк. Индекс-луғат. Тошкент. 1967.
12. Ҳидоятгов Г.А. Менинг жонажон тарихим. -Ўқитувчи, 1992.
13. Элмуродов Н. Зарафшон воҳаси ўзбек халқи этник гуруҳлари. Самарқанд: 2008
14. Самарқанд вилояти Қо‘шробод туманида Қо‘штамғ‘али қишлоғ‘и. 2023 йил.
15. Дала этнографик ма’лумотлари. Қо‘шробод тумани Орлот қишлоғ‘и. 2023 йил.
16. Дала этнографик ма’лумотлари. Самарқанд вилояти Қо‘шробод тумани. 2023 у.
17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-j/jilontamgali-uz/>
18. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tamga-uz/>